



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



**FAN: YER RESURSLARINI BOSHQARISH**

MAVZU

**15**

**SO'G'ORISH VA MELIORATIV  
TARMOQLAR FAOLIYATINI  
BOSHQARISHNING ASOSIY  
YUNALISHLARI**



**RO'ZIBOYEV S.B**



**Yer resurslarini boshqarish  
kafedrasi dotsenti, PhD**



## **REJA**

- 1. Sug'orish va meliorativ tarmoqlar faoliyatini boshqarishning tushunchasi**
- 2. Sug'orish va meliorativ tarmoqlar faoliyatini boshqarishning asosiy yo'nalishlari**

Respublikaning mavjud suv xo'jalik tizimi 30-35 yildan ortiq eksplatatsiya qilinmoqda, ko'pgina nasos stansiyalari o'z xizmat muddatlarini o'tab tugatishgan. Respublikadagi 40% davlat nasos stansiyalari 20-25yildan beri ishlamoqda, 43% esa-30yildan ortiq, ularni ta'mirlashga bo'lgan xarajatlar har yili oshib ketmoqda. Irrigatsiya tizimlarini zaruriy holatda ushlab turish uchun ajratilayotgan budget vositalari har yillik talabning 65-70 %ini tashkil etmoqda. Suv xo'jaligi majmualarini moliyalash hajmlarini keskin kamayishi ham kuzatiladi. Bularning barchasi suv xo'jaligi ob'yektlarining texnik holatlarini pasayishiga (ularning ko'pchiligi qoniqarsiz holatlarda), sug'oriladigan yerlarni sho'rlanishi va botqoqlanishga va oxir-oqibatda, ular mahsuldorligini pasayib ketishiga olib kelmokda.

Sugʻorish tarmoqlari xoʻjaliklararo va ichki xoʻjalik tarmoqlariga, boʻlinadi, xoʻjaliklararo tarmoqlar davlat tarmoqlaridir, ichki xoʻjalik tarmoqlari suvdan foydalanuvchilar uyushmalari ixtiyoriga berilgan va ular xoʻjali hisobidagi tarmoqlardir. Respublikadagi sugʻorish tarmoqlarining umumiy uzunligi 197,6 ming km.ni, shu jumladan xoʻjaliklararo tarmoqlar 14%ni, ichki xoʻjalik 86%ni tashkil etadi. Xoʻjaliklararo sugʻorish kanallarining 31%ga beton yotqizilgan. Sugʻorish kanallariga 4,26 mln.ga sugʻoriladigan yer maydoni birlashtirilgan

\* Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002yil 5 yanvarda 8-sonli qaror qabul qilindi, unda “Qayta tashkil etilgan xo‘jaliklar hududida suvdan foydalanuvchilar Uyushmasini SFU tashkil etish tartibi” tasdiqlandi. Hukumatning ushbu qaroriga asosan o‘z tarkibiga 141 mingdan ortiq suvdan foydalanuvchilarni birlashtirgan hamda 3269,1ming gektardan ortiq maydonga xizmat ko‘rsatuvchi 1407 SFU tashkil etilgan. Keyingi yillari asosiy sug‘orish infratuzilmalarini saqlab turish uchun zaruriy talabdan 55-66 %i moliyalanmoqda xolos, sug‘orish tizimlarini ishlab turishiga sarflanayotgan harajatlarni yil sayin qisqarmoqda.

-1990yildan 2006yilga qadar suv xo‘jaligidagi kapital harajatlari deyarli 5 barobar qisqardi, shu bilan bir vaqtda nasos stansiyalari tomonidan iste‘mol qilinadigan elektr energiyasiga to‘lovlar ulushi 18,5%dan 72,1% gacha o‘tdi, ya‘ni 3,9 barobarga qo‘paydi. Mamlakatda iste‘mol qilinadigan elektr energiyasining 20%ga yaqini hamda suvdan foydalanishning 72% sarf-harajatlari nasos stansiyalari va zovurlar uchun foydalaniladigan elektr energiyasiga to‘g‘ri keladi. 2006 yilda ushbu maqsadlarga 410,2 mlyard so‘m budget mablag‘lari sarflandi, shundan 72,1% nasos stansiyalari uchun elektr energiyasini iste‘moliga to‘g‘ri keladi.

Misol uchun, bug'doy va meva, sabzavot ekinlarini yetishtirish uchun gektariga 4000 m<sup>3</sup> hajmda suv limiti ajratish. Suv me'yorida ortiqcha foydalanganiga ilg'or to'lovni belgilash zarur. Suvdan foydalanishga to'lovning bunday tizimini joriy etish suvdan foydalanuvchilarning moddiy manfaatdorligini oshiradi, suvni iqtisod qilishga manfaat vujudga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2023 yil 29 apreldagi

“Buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, tuproq unumdor qatlamini saqlash va undan oqilona foydalanishni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida” 169-sonli qarori bugungi kunda sug‘orish va meliorativ tarmoqlar faoliyatini boshqarishga bo‘lgan talablarni kuchaytirish kerakligini kursatib turibdi.



O'zbekistonda so'nggi yillarda barcha sohalar kabi suv xo'jaligi sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi ob'yektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Suv xo'jaligi sohasidagi mavjud muammolar (suv tanqisligi va suv resurslariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, iqlim o'zgarishi, aholi sonining o'sishi, suvga bo'lgan talabning oshib borishi)ni aniqlash, ularni o'z vaqtida bartaraf qilish va choratadbirlar ishlab chiqish anchagina mashaqqatni talab etadi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, global iqlim o'zgarishi natijasida so'nggi 50–60 yil davomida Markaziy Osiyoda muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. 2050 yilgacha Sirdaryo havzasida suv resurslari 5 foizga, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Natijada O'zbekistonda 2030 yilga borib suvga bo'lgan talab 7 mlrd. kub metrni, 2050 yilga borib esa, bu ko'rsatkich ikki barobarga ortishi mumkin. Aholi sonining keskin oshib borishi, suvdan foydalanish samaradorligi pastligi hisobiga oxirgi 15 yil ichida aholi jon boshiga suv ta'minoti taxminan ikki barobarga (3048 m<sup>3</sup> dan 1589 m<sup>3</sup> ga) qisqargan. Natijada 2030 yilga borib keskin o'sib borayotgan aholining sifatli suvga bo'lgan talabi 18–20% (2,3 mlrd. m<sup>3</sup> dan 2,7–3,0 mlrd. m<sup>3</sup>) ga ortishi kutilmoqda. Bu holat suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va irrigatsiya ob'yektlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish kabi bir qator

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi  
“O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini  
rivojlantirishning 2020–2030 yillarga  
mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash  
to‘g‘risida”gi PF-6024-sonli Farmoniga  
muvofiq tasdiqlangan Konsepsiya sohadagi  
mavjud muammolarni bartaraf etish va suv  
xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha qator  
dolzarb vazifalar hamda ustuvor  
yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan.

# **Sug'orish va meliorativ tarmoqlar faoliyatini boshqarishning asosiy yo'nalishlari**

- 1. Suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv tejoychi texnologiyalarni qo'llash**
- 2. Irrigatsiya-melioratsiya ob'yektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash-tiklash**
- 3. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash**
- 4. Foydalanishdan chiqqan yer maydonlarini qayta foydalanish (oborot)ga kiritish masalalari**
- 5. Suv xo'jaligi tarmog'ida energiya sarfini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar**
- 6. Suv xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan ilmiy loyihalar va xalqaro grantlar**

**Mazkur hujjatda 2030 yilga qadar quyidagi ko'rsatkichlarga erishish ham nazarda tutilgan:**

Sug'orish tizimlarining foydali ish koeffitsiyentini 0,63 dan 0,73 gacha oshirish;

Suv ta'minoti past darajada bo'lgan sug'oriladigan yer maydonlarini 560 ming gektardan 190 ming gektargacha kamaytirish;

sho'rlangan sug'oriladigan yer maydonlarini 226 ming gektarga kamaytirish;

Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalarining yillik elektr energiyasi iste'molini 25 foizga kamaytirish;

barcha irrigatsiya tizimi ob'yektlariga "Aqlli suv" suv o'lchash va nazorat qilish qurilmalari o'rnatilib, suv hisobini yuritishda raqamli texnologiyalarni joriy etish;

100 ta yirik suv xo‘jaligi ob‘yektida suvni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish; qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 million gektargacha, shu jumladan, tomchilab sug‘orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish; suv xo‘jaligida davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida 50 ta loyihani amalga oshirish.



***E'TIBORINGIZ UCHUN  
RAXMAT***